



TARBIYA DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOY ZARURIYAT SIFATIDA

Xalilova H.M.

Qarshi davlat universiteti Pedagogika kafedrasi v/b dotsenti

Tayanch soʻzlar: шахс, komil inson, sogʻlom eʼtiqod, majburiyat, maʼrifat., масъулият, milliy bagʻrikenglik, huquqiy ong, madaniyat.

Ключевые слова: человек, совершенный человек, здоровая вера, целеустремленность, просвещенность, ответственность, национальная толерантность, правосознание, культура.

Key words: man, criterion, requirement, responsibility, morality, control, habit, responsibility, virtue, man, mind, mentality.

Jahon taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar uzluksiz taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish, innovatsion taʼlim texnologiyalari asosida boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligi va kreativ tafakkurini rivojlantirishning variativ shakllarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Taʼlim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mexanizmlarini yangicha yondashuvlar bilan integratsiyalashda Xitoy, Singapur, Yaponiya, Koreya, Finlandiya, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlar tajribalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Komil inson tarbiyasi har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasidagi loqaydlik jamiyatni maʼnaviy inqirozga olib kelishi oʻtmish ajdodlarimiz tajribalaridan yaxshi maʼlum. Negaki, taraqqiyot uchun har qanday jamiyatda ham moddiy, ham maʼnaviy boyliklar doirasi toʻxtovsiz ravishda kengayib borishi zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 422-son Qarorida “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuygʻusi”, “Milliy



istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1–9-sinflarda 2020–2021 o'quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021–2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi" belgilab qo'yilgan [1;1]. Shuningdek, mazkur qarorda shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifat, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masala ekanligiga alohida urg'u berilgan. Yoshlar tarbiyasida muhim vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish;

ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qarorlar qabul qilish;

hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantirishga o'rgatish;

oila – jamiyat o'rtasidagi munosabatlar uzilib qolishining oldini olish;

loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash;

mustaqil va erkin fikrlashni hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash [1; 3].

Aytish o'rinliki, boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o'quvchilar fanning mazmun-mohiyatini anglab yetishlari Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son Qarori, 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

2030 yilga kelib O'zbekiston Respublikasining PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash;
o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

milliy mentalitetga yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash [3;7].

Yuqoridagi belgilangan vazifalar asosida aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali o'quvchi-yoshlarda yuksak ma'naviy tolerantlik, umummadaniy dunyoqarashni kamol toptirish nazarda tutiladi. Buning uchun:

- boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mazmuniga buyuk allomalar ma'naviy merosini kiritish;
- o'tmish ajdodlarimiz asarlarini o'rganish va ularning faoliyatiga qiziqish, shaxsiyatiga ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash maqsadida tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish va shu orqali xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalashish;
- o'quvchilarning vatanimiz tarixi, madaniyati va atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirish, ta'lim olishda erkin mobilizatsiyasiga erishish;
- ajdodlarimiz tomonidan to'plangan madaniy merosni asrab- avaylashga o'rgatish;
- milliy tajribalar va xalqaro standartlarga mos tarbiyaviy faoliyat mazmunini kengaytirish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash;
- an'anaviy yondashuvlarga nisbatan innovatsion ta'lim usullariga kengroq o'rin berish;
- yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlash, bunda ularning san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishlarini oshirish;
- boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar tahlillaridan ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirishning quyidagi tarkibiy komponentlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

Tarbiya darslari mazmunini o'zlashtirish darajalarini baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;



tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillari asosida ajdodlarimiz merosidan oqilona foydalanish metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish;

fanni o'qitishning metodik ta'minotini boyitish;

o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali ta'lim tizimiga ta'limning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish [4;6].

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishdan asosiy maqsad axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan vatanparvar o'quvchilarni milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlari yordamida tarbiyalashdir [6;16].

Ta'kidlash o'rinliki, XVII asrdayoq didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy tomonidan ta'limning "Vaqt, fanlar va metodlarni mohirona taqsimlashdan" boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibini topishga harakat qilingan. Komenskiyning fikricha, ideal o'qitishning yagona mukammal metodi topilsa, "hamma narsa og'irliklari to'g'ri muvozanatlangan soatga nisbatan aniqroq, faqat ana shunday mahorat bilan yaratilgan asbobda erishish mumkin bo'lgan bexatolik bilan ilgarilaydi".

Pedagogik adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, mamlakatimiz kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyul 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "TARBIYA" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4885018>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-Tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 6 noyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Qonun hujjatlari to'plami, 2018.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel.



5. Jo'rayev R.H., Safarova R.G'., Ibragimov X.I, Musayev U.Q. Pedagogika fani kontseptsiyasi //J. Xalq ta'limi. –2004. –№5. –B. 4-33.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада муаллиф тарбия darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning ijtimoiy dolzarb masalasi ekanligini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilgan, shuningdek komil inson tarbiyasi, o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifat, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi fazilatarni shakllantirishning ahamiyati va bu jarayonni amalga oshirishda Tarbiya darslarini loyihalashtirishning bevosita tutgan o'rni va aloqadorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор с научно-педагогической точки зрения проанализировал, что совершенствование механизмов проектирования учебных уроков является актуальной социальной задачей современности, а также совершенное образование человека, ответственность, целеустремленность, правосознание и культура, глубокая мировоззрение, здоровье в подготовке учащихся к успешной общественной жизни. Важность формирования таких качеств, как вера, просвещенность, религиозная и национальная толерантность, духовная, гражданская, межкультурная, социальная гибкость, а также непосредственная роль и актуальность проектирования образовательных занятий в реализации этот процесс был научно проанализирован.

SUMMARY

In this article, the author examines the problem of personal responsibility, the meaning and importance of educating a person to comply with moral standards, the social value of personal responsibility, all parts of responsibility, human self-control, self-control. personality, self-control, pedagogy of security service assessment, compliance with the requirements of the moral criterion of the individual, social value of individual responsibility. The responsibility of organic relationships is scientifically analyzed.